

**O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig'ilishining
BAYONI**

2026-yil 6-iyul

3-son

Toshkent shahri

Raislik qildi: A. Ayubjonov — Jamoatchilik kengashi a'zosi.

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a'zolari, Milliy statistika qo'mitasi raisi o'rinbosari hamda tegishli tarmoq boshqarmalari va bo'limlari boshliqlari.

KUN TARTIBI:

I. 2026-yil II chorak yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida axborot;

II. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini tashkil etish va o'tkazish yakunlari to'g'risida hisobot;

III. Milliy statistika qo'mitasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar holati tahlili;

IV. Milliy statistika qo'mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha 2026-yil II chorak yakunlari.

(A. Ayubjonov, Z. Tojiyeva, K. Ismoilova, U. Abdurasulov)

Milliy statistika qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (keyingi o'rinlarda Jamoatchilik kengashi) a'zosi A. Ayubjonov yig'ilishni ochib, ishtirokchilarni kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirdi.

I. 2026-yil II chorak yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Milliy statistika qo'mitasi raisi o'rinbosari Z. Ziyayevning hisoboti eshitildi:

2026-yil yanvar-iyun oylarida jami 1 800 ta statistika ishi belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda bajarildi. Shundan 849 tasi Milliy statistika qo'mitasi va uning organlari, 462 tasi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari, 489 tasi esa boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan bajarildi.

Milliy statistika qo'mitasi tomonidan iqtisodiyot soha va tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha maqsadli kompleks dasturlar monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirildi. Shuningdek, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistik ma'lumotlar har oyda Hukumatga taqdim etildi.

2025-yil yanvar-dekabr davri uchun O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha dastlabki yakunlarga doir statistik ma'lumotlar tayyorlanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank hamda boshqa vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq bajarilgan ishlar natijasida shakllantirilgan ochiq statistik ma'lumotlar axborotnomalar, to'plamlar va press-revizlar shaklida, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e'tiboriga yetkazildi.

Xususan, qo'mitaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida: Telegram kanalida 540 ta, Facebook sahifasida 345 ta va Instagram sahifasida 154 ta yangilik e'lon qilindi.

Shuningdek, 36 ta infografik rolik hamda statistika faoliyatiga oid 520 ta lavha "O'zbekiston 24" telekanalida efirga uzatildi. "Yangi O'zbekiston" va boshqa nashrlarda 9 ta material chop etildi.

Xalqaro statistika amaliyotini inobatga olgan holda, statistika sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha 2026-yil yanvar-iyun oylarida 9 ta yangi uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi.

Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini takomillashtirish, ma'lumotlar sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida portalda e'lon qilinayotgan ma'lumotlar to'plamlari soni 13 100 dan oshdi.

Jumladan, Milliy statistika qo'mitasi tomonidan portalda e'lon qilinayotgan statistik ma'lumotlar to'plamlari soni 10 461 tani tashkil etdi.

Sohani rivojlantirish, ilg'or tajribalar va zamonaviy uslubiy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yildi. Shuningdek, mamlakat ko'rsatkichlarini xalqaro axborot bazalarida aks ettirish yuzasidan axborot almashinuvi amalga oshirildi.

2026-yil yanvar-iyun oylarida xalqaro tashkilotlarning jami 19 ta savolnomasi to'ldirilib, taqdim etildi. Jumladan, BMT Statistika bo'limining 2 ta, YUNESKO Statistika institutining 3 ta, MDH Davlatlararo statistika qo'mitasining 2 ta hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning 4 ta savolnomasi taqdim etildi.

Bundan tashqari, to'rtta xalqaro ma'lumotlar bazasida, xususan, XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi doirasida, MDH va "COMTRADE" ma'lumotlar bazalarida O'zbekistonning statistik ko'rsatkichlari o'z vaqtida yangilandi.

Jumladan, BMTning tovarlar savdosi bo'yicha "COMTRADE" axborot bazasida O'zbekiston Respublikasining 42 673 ta tovar turi bo'yicha ma'lumotlarini har oy yangilab borish ta'minlandi.

XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (e-GDDS) doirasida 422 ta indikator bo'yicha ma'lumotlar muntazam yangilanmoqda.

Shuningdek, XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimidan (e-GDDS) Ma'lumotlarni tarqatishning maxsus standartiga (SDDS) o'tish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

II. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini tashkil etish va o'tkazish yakunlari to'g'risida hisobot.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot eshitildi.

2026-yil 5–13-yanvar kunlari respublika bo'yicha 50 mingdan ortiq "mahalla yettiligi" xodimi uch bosqichda amaliy o'qitildi. O'quv-uslubiy materiallar takomillashtirilib, joylarga yetkazildi, xodimlar zarur jihozlar bilan ta'minlandi. Shuningdek, vazirlik va idoralar hamda oliy ta'lim muassasalari vakillariga onlayn ro'yxatdan o'tish bo'yicha amaliy ko'mak ko'rsatildi.

Ro'yxatga olishni o'tkazish uchun census.stat.uz axborot tizimi hamda hududlar, tuman (shahar)lar va mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida jarayonlarni kunlik kuzatish imkonini beruvchi maxsus monitoring tizimi ishga tushirildi. OneID orqali ro'yxatdan o'tish soddalashtirildi, axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida milliy sertifikatga ega kriptografik himoya vositalari joriy qilindi, 1851 qisqa raqami orqali aloqa xizmati yo'lga qo'yildi.

2026-yil 15–31-yanvar kunlari onlayn ro'yxatga olish bosqichi o'tkazildi. Dastlabki yakunlarga ko'ra, respublikadagi 7,6 mln xonadonning 6,2 mln tasida yashovchi 30,4 mln nafardan ortiq aholi onlayn ro'yxatdan o'tdi. Bu jami xonadonlarning 82,3 foizini tashkil etdi. Shuningdek, 148 mingta yuridik shaxs qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha tegishli savolnomalarni taqdim etdi.

2026-yil 4–28-fevral kunlari "mahalla yettiligi" xodimlari tomonidan uyma-uy yurib ro'yxatga olishning ikkinchi bosqichi o'tkazildi. Planshet qurilmalari orqali turar va noturar joylarga tashrif buyurgan holda ma'lumotlar yig'ildi. 28-fevral holatiga tashkiliy reja hamda GIS bazasida qayd etilgan manzillar to'liq qamrab olindi. Tadbir yakunlangach, unda ro'yxatga oluvchi sifatida qatnashgan "mahalla yettiligi" xodimlarini bir martalik rag'batlantirish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

Ro'yxatga olish tadbirining ahamiyatini keng tushuntirish maqsadida mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida 20 mingga yaqin material e'lon qilindi, respublika telekanallarida 250 ga yaqin maxsus lavha va reportaj, radiokanallarda 250 dan ziyod eshittirish efirga uzatildi. Aholi gavjum joylar, ta'lim muassasalari, jamoat transporti obyektlari va davlat tashkilotlarida plakat, banner hamda videoroliklar joylashtirildi.

2026-yil mart oyida ro'yxatga olish ma'lumotlarining aniqligi va to'liqligini baholash maqsadida ro'yxatga olishdan keyingi nazorat kuzatuv (PES) o'tkazildi. Kuzatuv metodologiyasi FAO va YUNFPA ekspertlari ishtirokida ishlab chiqildi. GIS asosida tanlab olingan 15 mingta lokatsiyadagi 15 736 ta uy xo'jaligida qayta ro'yxatga olish ishlari amalga oshirildi.

Hisobot davrida birlamchi ma'lumotlarni qabul qilish va markazlashgan bazaga jamlash ishlari yakunlandi. Dublikat va noto'g'ri yozuvlarni aniqlashtirish, ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan hamda qo'lda tekshirish, klassifikatsiya qilish, kodlash va agregatlash ishlari amalga oshirildi. Hududiy boshqarmalar, vazirlik va idoralardan olingan 20 ga yaqin ma'lumotlar bazasi yagona standart asosida integratsiya qilindi.

Maxsus axborot tizimi yordamida ro'yxatga olishning dastlabki ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida shakllantirilib, statistik to'plam ko'rinishida chop etildi hamda aholi.stat.uz saytiga joylashtirildi.

III. Milliy statistika qo'mitasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar holati tahlili.

Milliy statistika qo'mitasi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limining 2026-yil I yarim yilligida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axboroti eshitildi.

Hisobot davrida qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari riskka asoslangan yondashuv, raqamli monitoring, manfaatlar to'qnashuvini oldindan aniqlash, ochiqlikni ta'minlash hamda xodimlarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish tamoyillari asosida tashkil etilgani qayd etildi.

Korrupsiyaga qarshi siyosat, odob-axloq qoidalari, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berish, xizmat tekshiruvlarini o'tkazish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, sovg'alar va manfaatlarni deklaratsiya qilish, davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlash hamda xodimlarni o'qitish tartiblarini belgilovchi jami 15 ta ichki idoraviy hujjat amaliyotga joriy etildi.

Qo'mita tizimida korrupsiyaviy holatlar to'g'risida xabar berish uchun 1151 qisqa ishonch telefoni, call-markaz, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limining

aloqa raqami, rasmiy veb-saytdagi maxsus sahifa, ijtimoiy tarmoqlar hamda “@antikorrupsiyastatbot” Telegram-boti orqali murojaat yuborish imkoniyati yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur aloqa kanallarining doimiy va tezkor ishlashi ta‘minlanib, xodimlar, respondentlar va tadbirkorlik subyektlariga shaxsini oshkor etmagan holda xabar berish imkoniyati yaratilgan.

Hududiy statistika boshqarmalarida xodimlarning xizmat faoliyati bilan bog‘liq muammolarini o‘rganish va korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuzasidan xabarlarni qabul qilish maqsadida “Adolat qutisi” yoki “Murojaatlar qutisi” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur qutilarni har 15 kunda dalolatnoma asosida tekshirish va natijalari bo‘yicha qo‘mitaga axborot kiritish tartibi belgilangan.

2026-yil I yarim yilligida 155 nafar xodim umumiy malaka oshirish va profilaktik o‘quv mashg‘ulotlariga jalb etilgan. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi 38 nafar xodim uchun 12 soatlik maxsus modulli o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilgan.

O‘quv mashg‘ulotlarida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, sovg‘alar bilan bog‘liq cheklovlar, davlat xaridlari va xizmat safarlarida qonunchilik talablariga rioya etish, respondentlar bilan muloqotda manfaatdorlikka yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaviy holatlar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Shuningdek, markaziy apparat va hududiy statistika organlarida korrupsiyaga qarshi targ‘ibot tadbirlari doirasida 420 dan ortiq banner, flayer, buklet, eslatma, plakat va boshqa ko‘rgazmali materiallar tarqatilgan. Rasmiy veb-sayt va ichki axborot kanallarida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda xodimlarning xizmat faoliyatida halollik tamoyillariga rioya etishi bo‘yicha tushuntirish materiallari joylashtirib borilgan.

Yig‘ilishda qo‘mita tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni muntazam tahlil qilish, davlat xaridlari va kadrlar bilan ishlash jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvini barvaqt aniqlash, e-Anticor platformasi uchun ma‘lumotlarni sifatli shakllantirish, raqamli monitoringni kengaytirish hamda ichki nazorat bo‘linmasining mustaqil faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlarni ta‘minlash ustuvor vazifalar ekani ta‘kidlandi.

Shuningdek, qo‘mitaning har bir rahbari va xodimi korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, xizmat vazifalarini xolis bajarish, statistik ma‘lumotlarni tayyorlash va tarqatishda qonuniylik, halollik hamda professional etika talablariga qat‘iy rioya etishi lozimligi qayd etildi.

IV. Milliy statistika qo'mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha 2026-yil II chorak yakunlari.

Milliy statistika qo'mitasida murojaatlar bilan ishlashni samarali tashkil etish va ularning ijrosini nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2026-yil yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda 12 ta sayyor qabul o'tkazildi, ularda 283 nafardan ortiq fuqaro va tadbirkor ishtirok etdi. Murojaatlarning aksariyati joyida hal etildi, 75 tasi ro'yxatga olinib, belgilangan tartibda javob berildi.

2026-yil yanvar-iyun oylarida Milliy statistika qo'mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan jami 542 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 321 tasi (59,2 %) jismoniy shaxslardan, 221 tasi (40,8 %) yuridik shaxslardan kelib tushgan.

Shundan 173 ta murojaat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali, 205 tasi elektron pochta orqali, 151 tasi og'zaki shaklda, 13 tasi esa to'g'ridan to'g'ri kelib tushgan.

Murojaatlar mazmuni:

- 203 tasi (37,5 %) — ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar taqdim etish;
- 89 tasi (16,4 %) — aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayoni yuzasidan;
- 124 tasi (22,9 %) — amaliy yordam so'rash;
- 65 tasi (12,0 %) — Yagona davlat registri masalalari;
- 40 tasi (7,4 %) — statistik hisobotlarni taqdim etish;
- 6 tasi (1,1 %) — ish staji, ish haqi va tashkilot nomining o'zgarishi to'g'risidagi arxiv ma'lumotlari;
- 4 tasi (0,7 %) — taklif;
- 4 tasi (0,7 %) — shikoyat;
- 7 tasi (1,3 %) — boshqa masalalar.

Hududlar kesimida eng ko'p murojaat Toshkent shahridan kelib tushgan — 240 ta (44,3 %).

2026-yil yanvar-iyun oylarida Milliy statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 542 ta murojaatning 502 tasi ko'rib chiqildi, 40 tasi bo'yicha tushuntirish berildi. Barcha murojaatlar rahbariyat nazoratiga olinib, o'z vaqtida javoblar taqdim etildi.

Jamoatchilik kengashi qaror qiladi:

1. Kun tartibidagi masalalar bo'yicha taqdim etilgan hisobot va axborotlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Milliy statistika qo'mitasi tizimida statistika ishlarini belgilangan muddatlarda va sifatli amalga oshirish, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga

olishning dastlabki ma'lumotlarini chuqur tahlil qilish, yakuniy natijalarni shakllantirish hamda ularni belgilangan tartibda e'lon qilish bo'yicha tegishli choralar ko'rib borilsin.

3. Xodimlar malakasini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, o'quv kurslari va seminarlar tashkil etish, shuningdek, qo'mita faoliyati va amalga oshirilayotgan ishlarni rasmiy veb-sayt, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali tizimli yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Ijro intizomini mustahkamlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish, murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish hamda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri yakunlari bilan bog'liq keyingi tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirib borish tavsiya etilsin.

Jamoatchilik kengashi
mas'ul kotibi



U. Abdurasulov